




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar doi

zenodo

OpenAIRE



+998335668868

<https://innoworld.net>

2026



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2026-YIL № 6-SONLI ILMIY,
MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

MURRAY BAILNING EUCALYPTUS ROMANIDA HIKOYA ORQALI PSIXOLOGIZMNING YARATILISHI

Mukhammedova Nafisa Kamolovna,

Phd researcher, EFL teacher at Uzbekistan State World Languages University
(UzSWLU)

nafiza106@mail.com

<https://orcid.org/0009-0004-3203-566X>

Annotatsiya. Mazkur tezisda Murray Bailning Eucalyptus romanida inson ruhiy kechinmalarining ifodalanish usullari tahlil qilinadi. An'anaviy psixologik romanlarda qahramonning ichki dunyosi ichki monolog, ong oqimi va muallifning psixologik tahlillari orqali ochib berilsa, Eucalyptus romanida ruhiy kechinmalar hikoya qilish jarayoni vositasida ifodalanadi. Tadqiqot davomida Holland, Mr Cave va Stranger obrazlari qiyosiy tahlil qilinib, ratsional tafakkur hamda hikoya asosidagi bilish modeli qarama-qarshi qo'yiladi. Natijada romanda psixologizmning an'anaviy shaklidan farq qiluvchi narrativ modeli shakllangani aniqlanadi.

Kalit so'zlar: psixologizm, Murray Bail, Eucalyptus, hikoya qilish, narrativ strategiya, ruhiy kechinma, ichki monolog.

Kirish. Badiiy adabiyotda inson ruhiyatini tasvirlash masalasi adabiyotshunoslikning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Qahramonning ichki dunyosi, hissiy holatlari va ruhiy kechinmalarini badiiy aks ettirish usullari odatda psixologizm tushunchasi bilan izohlanadi. XIX asr realizmi va XX asr modernistik adabiyotida psixologizm asosan ichki monolog, ong oqimi, ichki dialog va muallifning psixologik sharhlari orqali namoyon bo'lgan. Tolstoy, Dostoyevskiy, Prust va Joys kabi yozuvchilar qahramon ongiga kirib borish va uning ruhiy olamini bevosita tasvirlash orqali psixologik roman an'alarini shakllantirganlar. Dorrit Cohn badiiy nasrning muhim xususiyatlaridan biri qahramon ongini tasvirlash imkoniyati ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, muallif turli narrativ vositalar yordamida qahramonning ichki kechinmalarini o'quvchiga yetkazadi (Cohn, 1978, pp. 5–7). Shu sababli psixologizm ko'pincha qahramon fikrlari va hissiyotlarini bevosita tasvirlash bilan bog'lanadi. Biroq zamonaviy adabiyotda inson ruhiyatini ifodalashning yangi shakllari ham yuzaga kelmoqda. Murray Bailning Eucalyptus romani ana shunday asarlar qatoriga kiradi. Asarda qahramon ruhiyatini ochish uchun an'anaviy ichki monolog yoki ong oqimidan ko'ra hikoya qilish mexanizmlaridan foydalaniladi. Shu jihatdan roman psixologizmning o'ziga xos narrativ modelini namoyon etadi.

Eucalyptus romanining markazida Ellen obrazi turadi. Biroq muallif uning ruhiy holatini to'g'ridan-to'g'ri sharhlaymaydi. O'quvchi Ellenning ichki dunyosini uning harakatlari, munosabatlari va ayniqsa Stranger tomonidan aytilgan hikoyalarga bo'lgan reaksiyasi orqali anglaydi. Romanning syujeti Holland tomonidan qo'yilgan g'ayrioddiy shart asosida quriladi. U qizini turmushga berish uchun sovchilar uning yeridagi barcha evkalipt daraxtlarining nomlarini topishi kerakligini e'lon qiladi. Bu shart bir qarashda romantik sinov bo'lib tuyulsa-da, aslida bilim, tasniflash va nazorat qilish g'oyalarini ifodalaydi. Amanda Rooks Holland va Mr Cave obrazlarini tasniflashga asoslangan tafakkur vakillari sifatida talqin qiladi. Tadqiqotchining fikricha, ular tartib, nazorat va hukmronlikka intiluvchi dunyoqarashni ifodalaydi (Rooks, 2007, pp. 29–30). Ayniqsa Mr Cave daraxtlarning barcha nomlarini yodlab olish orqali Ellenni qo'lga kiritishga harakat qiladi. Bu esa bilimning insoniy munosabatlar ustidan ustun qo'yilishini ko'rsatadi. Shu nuqtada romanga Stranger obrazi kirib keladi. U boshqa sovchilar kabi daraxtlarni



nomlash yoki tasniflash bilan shug'ullanmaydi. Aksincha, Ellen bilan muloqot qilish uchun hikoyalardan foydalanadi. Uning har bir hikoyasi qizning tasavvurini uyg'otadi, ichki dunyosiga ta'sir qiladi va uni yangi ruhiy tajribalar sari yetaklaydi. Stranger hikoyalari voqealar ketma-ketligi sifatida emas, balki Ellenning ruhiy o'sishiga xizmat qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Qahramonning ichki kechinmalari aynan shu hikoyalarni tinglash jarayonida shakllanadi. Bu esa romanda hikoya qilishning psixologik funksiyasini namoyon etadi.

Roman strukturasida ikki xil bilish modeli qarama-qarshi qo'yiladi. Birinchi model Holland va Mr Cave orqali ifodalangan ratsional bilish modelidir. Bu model narsalarni nomlash, tasniflash va nazorat qilishga asoslanadi. Evkalipt daraxtlarining yuzlab turlarini bilish va ularni ajrata olish ushbu dunyoqarashning asosiy belgisi hisoblanadi. Ikkinchi model esa Stranger orqali ifodalangan narrativ bilish modelidir. Bu yerda bilim faktlar yoki tasniflar orqali emas, hikoyalar orqali shakllanadi. Hikoya insonning tasavvuri, hissiyotlari va ruhiy tajribasiga ta'sir qiladi. Ellen aynan hikoyalar orqali o'zini va atrofidagi dunyoni yangicha anglay boshlaydi. Rooksning ta'kidlashicha, Strangerning tabiat bilan uyg'unligi va hikoya qilish qobiliyati uni Holland hamda Mr Cave obrazlaridan keskin ajratib turadi (Rooks, 2007, pp. 30–31). Romanning yakunida aynan hikoya orqali harakat qiluvchi qahramon g'alaba qozonadi. Bu esa muallifning tasniflash va nazorat qilishga asoslangan dunyoqarashdan ko'ra tasavvur va hikoyaga asoslangan bilish modelini afzal ko'rishini ko'rsatadi. Shu tariqa Eucalyptus romanida hikoya oddiy syujet elementi emas, balki inson ruhiyatini shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ellenning ichki transformatsiyasi ham hikoyalar ta'sirida yuz beradi. O'quvchi qahramonning ruhiy holatini muallif sharhlari orqali emas, hikoyalarning unga ko'rsatgan ta'siri orqali anglaydi. An'anaviy psixologik romanda qahramonning ichki dunyosi ko'pincha ichki monolog yoki ong oqimi orqali ochib beriladi. Murray Bail esa boshqa yo'lni tanlaydi. U qahramon ruhiyatini hikoyalar tizimi orqali ifodalaydi. Shu sababli Eucalyptus romanida psixologizmning o'ziga xos narrativ modeli yuzaga keladi. Bu modelning asosiy xususiyati shundaki, ruhiy kechinmalar to'g'ridan-to'g'ri tasvirlanmaydi. Ular hikoya qilish va hikoyani qabul qilish jarayonida namoyon bo'ladi. Stranger hikoyalari Ellenning ichki olamiga kirib boradi, uning dunyoqarashini o'zgartiradi va shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Natijada romanda hikoya qilish qahramon ruhiyatini ifodalashning asosiy vositasiga aylanadi. Shu jihatdan Murray Bail an'anaviy psixologizm chegaralarini kengaytiradi va inson ichki dunyosini tasvirlashning yangi shaklini taklif etadi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Murray Bailning Eucalyptus romanida psixologizm an'anaviy ichki monolog va psixologik tahlil vositalari orqali emas, balki hikoya qilish mexanizmi orqali yaratiladi. Holland va Mr Cave obrazlari tasniflash hamda nazorat qilishga asoslangan ratsional tafakkurni ifodalasa, Stranger hikoya va tasavvurga asoslangan bilish modelini namoyon etadi. Ellenning ruhiy o'zgarishi ham aynan hikoyalar ta'sirida sodir bo'ladi. Shunday qilib, romanda narrativ psixologizmning o'ziga xos modeli shakllanib, hikoya inson ruhiyatini ochib berishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar

Bail, M. (1998). Eucalyptus. Text Publishing.

Cohn, D. (1978). Transparent Minds: Narrative Modes for Presenting Consciousness in Fiction. Princeton University Press.

Rooks, A. (2007). Parodying patriarchy: Murray Bail's Eucalyptus and the "logic" of domination. LINQ, 34, 24–33.

